

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– may oylarida

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1283 taga o'sdi**.
- Faoliyat ko'ssatmayotgan korxonalarning ulushi **0,4% ga o'sdi**.
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1339 taga oshgan**.

2018 yilning yanvar-may oy larida viloyatda 1983 ta korxonalar va tashkilotlar yangi faoliyat ko'ssatayotgan korxtashkil etildi, bu esa o'tgan ona va tashkilotlar soni 1419 yilning shu davriga nisbatan ta (6,7 %) ga o'sgan hamda 102 taga ko'pdir.


Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan ularning umumiy soni 22480 tani tashkil etgan.

Shuningdek, faoliyati tutgatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning korxonalar shu davriga nisbatan 19,2 % ning asosiy ulushi Samanga ko'paygan hamda ular qand shahrida (31,8%), ning soni 644 tani tashkil Urgut (9,2 %), Pastdarg'om etganligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlar shu davriga nisbatan 19,2 % ning asosiy ulushi Samanga ko'paygan hamda ular qand shahrida (31,8%), ning soni 644 tani tashkil Urgut (9,2 %), Pastdarg'om etganligini kuzatish mumkin. (7,6%) va Samarcand (6,8%) tumanlarda kuza tilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



***Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi***
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyun holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Jami	23867	100,0	22480	100,0
Samarqand sh.	7598	31,8	7166	31,8
Kattaqo'rg'on sh.	845	3,5	825	3,6
tumanlar				
Oqdaryo	919	3,8	851	3,7
Bulung'ur	883	3,7	839	3,7
Jomboy	777	3,2	738	3,2
Ishtixon	1183	4,9	1110	4,9
Kattaqo'rg'on	1108	4,6	1027	4,5
Qo'shrabot	545	2,2	527	2,3
Narpay	872	3,6	848	3,7
Payariq	1276	5,3	1189	5,2
Pastdarg'om	1885	7,8	1713	7,6
Paxtachi	611	2,5	560	2,4
Samarqand	1646	6,8	1531	6,8
Nurobod	663	2,7	578	2,5
Urgut	2118	8,8	2074	9,2
Tayloq	938	3,9	904	4,0


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,2 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,8 % ni tashkil etgalligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,6 % ga kamayganini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,5 % savdoda, 18,3 % sanoatda, 8,5 % qurulishda, 7,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,2 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,7 % axborot va aloqa, va 30,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-may oylarida 1983 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 5,4 % ga ko'pdir. Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar eng ko'p Samarqand shahrida (593 ta), Samarqand tumani (177 ta), Pastdarg'om tumani (136 ta) va Kattaqo'rg'on shahrida (121 ta) tashkil etilgan. Eng kami Paxtachi (34 ta), Narpay (43 ta) hamda Qo'shrabot (56 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (421 ta), savdoda (418 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (278 ta) va qurilishda (256 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (33 ta), tashish va saqlashda (48 ta) hamda sog'linqi saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (58 ta) tashkil etilganligi kuzatilmogda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda

	2017 yil yanvar-may holatiga.	2018 yil yanvar-may holatiga.
Jami	1881	1983
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	259	278
Sanoat	534	421
Qurilish	152	256
Savdo	399	418
Tashish va saqlash	65	48
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	213	191
Axborot va aloqa	47	33
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	45	58
Boshqa turlari	167	280

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi boshqa turlarida (-1,9 f.p), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,1 f.p) va axborot va aloqa, savdoda (-0,2 f.p) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+1,4 f.p.), qurulish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,7 f.p), hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,6 f.p.) ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz bandda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.06.2018 y.	01.06.2017 y.	farqi (+ -)
Boshqa turlari	30,3	32,2	-1,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,3	3,4	-1,1
Axborot va aloqa	1,7	1,8	-0,2
Savdo	22,5	22,7	-0,2
Tashish va saqlash	3,2	3,2	0,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,1	6,5	0,6
Qurilish	8,5	7,8	0,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,1	5,5	0,7
Sanoat	18,3	16,9	1,4

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyl soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 iyun holatiga 17503 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4623 ta, oilaviy korxonalar – 1894 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10479 ta, aktsiyadorlik jamiyatları – 28 tani va boshqalar 479 tani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 331 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 63 taga yoki 23,5 % ga o'sgan. Shuningdek xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 252 tasi qo'shma korxonalar, 79 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarining soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahrida 171 ta (51,6 %), Urgut tumanida 39 ta (11,7 %) va Jomboy tumani 25 ta (7,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qo'shrabot tumanida 1 ta (0,3 %), Kattaqo'rg'on tumanida 2 ta (0,6 %), Ishtixon va faqat Narpay tumanlarida 3 tadan (0,9 %) to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda



2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'p sanoatda 213 ta (64,4 %), savdoda 45 ta (13,6 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 24 ta (7,3 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 19 ta (5,7 %)ni tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 3 ta (0,9 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, va tashish va saqlashda 4 ta (1,2 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 8 ta (2,4 %) va qurilishda 13 ta (3,3 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-may oylarida 50 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37 taga ko'paygan yoki 2,8 martaga oshgan.


Bunda, Turkiya Respublikasi bilan – 9 ta, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 8 ta, Koreya Respublikasi – 8 ta, Xitoy Xalq Respublikasi – 5 ta va Ukraina bilan -3 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-may oylarida) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 14 ta, savdoda 13 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 9 ta, qurilishda 8 ta va boshqa faoliyat turlarida 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyun holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 17388 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyul holatiga qaraganda 9,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 5963 tasi (34,3 %) Samarqand shahriga, Urgut tumani 1666 tasi (9,6 %), Pasdarg'om tumani 1280 tasi (7,3 %) va Samarqand tumani 1269 tasi (7,3%) hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar 5019 taga (28,9%) – savdoda, 4086 tasi (23,5 %) - sanoatda, 1898 tasi (10,9 %) - qurilishda, 1550 tasi (8,9 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1358 tasi (7,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 707 tasi (4,1 %) tashish va saqlashda, 365 tasi (2,1 %) - axborot va aloqa sohasida, 410 tasi (2,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1995 tasi (11,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-may oylarida 1840 ta kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 0,6 % ga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahrida (560 ta), Samarqand tumanida (173 ta), Urgut tumanida (127 ta), Pastdarg'om tumanida (121 ta), Kattaqo'rg'on shahrida (114 ta), Kattaqo'rg'on va Payariq tumanida (100 ta), eng kam esa Paxtachi tumanida (33 ta), Narpay tumanida (39 ta), Qo'shrabot (48 ta)ni tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (421 ta), savdoda (418 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (278 ta) va qurilishda (256 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (33 ta), tashish va saqlashda (48 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (58 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 iyun holatiga 1966 tani tashkil etib, ulardan 1894 tasi yoki 96,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yxatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **36,7** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 33,9 % yoki 643 tasi sanoat, 26,7 % yoki 505 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,5 % yoki 350 tasi savdo, 9,0 % yoki 170 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,2 % yoki 22 tasi qurilish, 1,7 % yoki 33 tasi axborot va aloqa, 0,8 % yoki 16 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 7 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 7,8 % yoki 148 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Samarqand viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: **F.Zulfuqorov**
(0371) 230-85-42,43



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYaDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan